

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLARI»**

MAHVUSUALA XALQARO I. MUNAQASHI ALG'IMASI



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi "2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli buyrug'i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'lamin kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida "Ingliz tili nazariy aspektlari", "Ingliz tili va adabiyoti" hamda "Ingliz tili amaliyoti" kafedralari tomonidan "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Mas'ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay'ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo'djayev
PhD. dots. M.A.Qurbanov
f.f.d.prof. G'.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G'.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o'qituvchisi N.Xamidov
kafedra o'qituvchisi Z.No'monova

Tahrir nashriyoti bo'limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag'ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to'plamdan respublika va xorijiy oliy ta'lif muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrler va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'rilingiga mualliflarning o'zлari mas'uldirilar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

turadi. Dastlabki ikkita xususiyatning o'zi bir turdag'i polipredikativ qo'shma gapni boshqasidan ajratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Уханов Г. П. Строение сложных полипредикативных предложений (основные понятия) / Г. П. Уханов // Сложные элементарные и полипредикативные предложения. – Калинин, 1983. – С. 82
2. Белошапкова В.А. Современный русский язык. Синтаксис / В.А.Белошапкова. – М: Высшая школа, 1977. – С.515-516
3. Формановская Н.И.;Шевцова С.В.Речевой этикет. Русско-английские соответствия: Справочник. 2-е изд. испр. — Москва: Высш. шк., 1992 —С.80.
4. Калашникова Г. Ф. Особенности многокомпонентных сложных предложений в поэтическом тексте / Г. Ф. Калашникова // Сложное предложение в тексте : межвуз. тем. сб. научных трудов. — Калинин, 1988. — С.138 – 146
5. Калашникова Г.Ф. Взаимовлияние сочинительных и подчинительных отношений в сложных сочиненно-подчиненных предложениях / Г.Ф. Калашникова // Методика преподавания русского языка и литературы: республиканский научно-практический сборник. – Киев: Радянська школа, 1983. – Выпуск 16. – С.15-27

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI PAREMIYALARIDA "ISH"
KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Burxonova Gulrux
ADCHTI 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "ish" konseptining milliy-madaniy xususiyatlari tadqiq etilgan bo'lib, shuningdek, mehnat bilan bog'liq bo'lgan maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari misollar orqali dalillangan.

Kalit so'zlar: maqol, matal, madaniy, milliy, konsept, lingvistika.

Maqol xalq og'zaki ijodi janri-qisqa va lo'nda, obrazli, grammatisk va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora hamda ular muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarni hajm jihatidan o'rganib borish jarayonida aynan mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning ko'proq uchrashiga guvoh bo'ldik. Buning turlicha sabablari mavjud. Masalan, mehnat qilib obro' topish, o'z ehtiyojlaringni qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o'z isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo'lish kabi masalalarga ingliz va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o'zbek va ingliz maqollarida o'z aksini topadi. Aynan shu mavzudagi maqollarni tahlil qilish jarayonida, hamisha mehnatsevarlik ijobiy baholanganligini, dangasalik va ishyoqmaslik esa qattiq qoralanishi kabi

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

masalalarning yoritilishini kuzatamiz. Quyida ushbu mavzuga oid ayrim ingliz maqollarining o'zbek tilidagi ma'nolarini ko'rib chiqamiz hamda ularni tahlil qilamiz [1].

The labourer is worthy, of his hire

Ishlab topganing osh, ishlamay topganing tosh

Bu maqolda mehnatsevarlik keng ko'lama ochib berilgan, ya'ni inson mehnat qilsa, halol ishlab topsa bu topgani unga hamisha yaxshilik keltiradi, oilasi, farzandlarini halol luqma berib boqish asnosida katta hikmat yotadi. Aksincha, ishlamay turib, birovning mehnati evaziga kun ko'radigan, boshqalarning mehnatini o'zlashtirib oladigan kimsalarning non-oshi halol, yegan-ichganida halovat bo'lmaydi.

He that is afraid of wounds must not come near a battle.

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas, Chigirkadan qo'rqqan —ekin.

Ushbu maqol zamirida ham chuqur ma'no yotgan bo'lib, unda dangasa insonlarning portreti yaqqol ochib beriladi.

Youth will serve Yosh kelsa —ishga, Qari kelsa —oshga.

Ushbu dissertatsiya'ning yoshi ulug'lar hamda yoshlar o'rtasidagi hurmat-izzat masalalari ochib berilgan. Ingliz tilida berilgan muqobilida Youth will serve tarzida berilgan bo'lib, bu ingliz madaniyatiga xos tarzida ko'rsatilgan. Ya'ni maqolning ikkinchi qismi berilmagan holda uning butun ma'nosи anglashiladi. O'zbek madaniyatida esa yoshi ulug'lar har doim hurmatda bo'lган holda, ular, jumladan, mahalla guzarlarida hasharlarga chaqirilgan aholi vakillari orasida yoshi kichiklar har doim yoshi kattalarni hurmat qilib, to'rdan joy ko'rsatib, ularning duolarini olgan holda barcha ishlarni o'zlarini adoetishlari ochib beriladi.

Yuqorida ko'rinish turganidek, mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning o'zbek va ingliz tillarida mavjudligi har ikkala xalqda ham ushbu fazilatlar kuchli ekanligini ko'rsatadi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, bir qismi tasviriy mohiyatgaega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir. Jumladan, yuqorida berilgan "Youth will serve" maqoli bunga yaqqol misol bo'ladi [2].

Aforizm atamasi ilk marotaba mashhur tabib Gippokrat tomonidan tadbiq etilgan bo'lib, uning "Kitob al-Fusul" ("Aforizmlar") tibbiy risolasi shunday nomlangan. Aforizmlar XX asrning boshlarida tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida, turli xil mazmun va shaklga xos nasriy matn tarzida tasniflashga bo'lган urinishlar asnosida o'rganila boshlangan. Adabiy-falsafiy va adabiy-badiiy oqimlar ta'siri ostida aforizm badiiy matn elementi sifatida ko'rib chiqilgan. Aforizmni aynan shunday mazmundan zamonaviy tilshunoslikda tushunish ham hozir juda keng tarqalgan. Aforizmning lingvistik xususiyatlari 1970-yillardan boshlab tilshunoslarning e'tiboriga tusha boshladi. Aforizmlar orqali yalqovlik konseptini tahlil qilishda ingliz va o'zbek tillarida ushbu tushunchaga xalqning munosabatini bilib olish mumkin. Quyida shunday aforizmlarni tahlil qilamiz. Yevropaliklar Avitsenna deb ataydigan afsonaviy Abu Ali Husayn ibn Sinoning mashhur "Tibboyot ilmi risolasi" asarida barcha kasalliklar sababchisi aynan danganosalik ekanligi

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

haqida o'z fikrlarini bayon etgan va shunday degan: "Bekorchilik va befarqlik nafaqat jaholatga sabab bo'ladi, balki ular ayni paytda kasallikning sababidir".

Bilamizki, inson tanasidagi kasalliklar ma'lum bir tashqi ta'sirlar natijasida vujudga keladi, biroq muallif bekorchilik va yalqovlik ham kishidagi bir kasallik ekanini ta'kidlaydi. Albatta, ushbu fikrlar o'rinnlidir, chunki, dangasalik ayni bir kasallik sifatida insondagi boshqa yaxshi sifatlarni ham yemirib, uni jamiyatning eng qoloq kishisiga aylantirib qo'yadi. Mashhur adib Shukrullo Yusupov o'zining "Javohirlar sandig'i" nomli asarida "Dangasalik-bu yomon dard, buning nomini o'zini-o'zi aldash deyiladi" degan jumlalarni keltirib o'tadi. Ya'ni, dangasalikni bir dardga qiyoslab bu orqali inson nafaqat boshqalarni balki o'zini aldashi mumkinligiga ishora qiladi [3].

Ingliz adiblaridan V. Shekspir o'zining "The Two Gentlemen of Verona" asarida inson yoshlik davrini yalqovlikda o'tkazmasligi kerakligini ta'kidlab shunday deydi:

I rather would entreat thy company
To see the wonders of the world abroad,
Than, living dully slaggardized at home,
Wear out thy youth with shapeless idleness.

Asardan olingan ushbu parchada, asar qahramoni tomonidan yoshlikdagi bu yalqovlikni olib tashlab, o'rniga dunyo g'aroyibotlarini ko'rmoq uchun menga qo'shil deya xitob qilgani tasvirlangan. Darhaqiqat, inson umrini ishyoqmaslik qilib behuda sarflamasligi kerak, aksincha, mehnat qilib, halol yashab dunyodaortidan yaxshi nom qoldirish uchun harakat qilishi kerak. Yoki Benjamin Franklin tomonidan aytilgan yana bir aforizmga nazar solsak: "Idleness is the Dead Seathat swallows all virtues" ya'ni yalqovlik o'lik dengiz kabi barcha yaxshi fazilatlarni yutib yuboradi, dangasalik bor joyda insonning yaxshi tomonlari yo'qolib boradi degan fikrni aytib o'tgan. "Dead Sea" ya'ni O'lik dengizida mineral tuzlar konsentratsiyasi yuqoriligi sabab biror tirik mavjudot bu yerda yashay olmaydi, shuning uchun, dengiz tinch, hech bir harakat kuzatilmaydi. Xuddi shunday, dangasalik ham qaysi bir jihatlari bilan shu dengizga qiyoslanib, hayotda harakat qilmay, intilmay yashash bora-bora insondagi boshqa bir insoniy fazilatlarini ham yo'qqa chiqarishi ushbu aforizmdan anglashiladigan ma'nodir [4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "yalqovlik" konseptini yoritib berishda, ingliz va o'zbek millatlarida ushbu salbiy illatga qanday munosabat bildirilishini ko'rsatib berishda xalqlarning nodir durdonalari bo'lgan maqollar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev X.D. Xalq maqollarining "Qutadg'u bilig" poetikasidagi o'mi va badiiy-estetik funksiyalari: Filol. fan. nomzodi ...dis. T., 2005. –152 b.
2. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.–М.: 1961. –236 ст.
3. Arora, S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio. 1984. –244р.
4. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. –М.: Наука, 1961. –76 с.

5. Атаканова Г.Ш. Номинации “возраст человека” в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка): Автореф. дис.... канд.филол.наук. –Т. 2006. –20c

INGLIZ VA O'ZBEK SPORT TERMINYLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

*Xabibullayeva Zarnigor Elmurod qizi
Andijon Davlat chet tillar instituti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining o'xhash va farqli jihatlari, milliy-madaniy xususiyatlari muhokama etiladi hamda misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sport terminologiyasi, tarjima, o'qitish, madaniyat, ingliz tili, o'zbek tili.

KIRISH

Jahon tilshunosligi zamonaviy konsepsiyasida lisoniy hodisalarini yangi ilmiy paradigma – antropotsentrism qonuniyatlarini chegarasida talqin qilish o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Bu borada sport terminologiyani lisoniy/g'ayrilisoniy tafakkur doirasida chog'ishtirish va chog'ishtirib o'rganishda ilk qadamlar qo'yildi. Dunyo terminosferasi maydonida sport terminlarining noqardosh tillar tizimida qo'llanishiga alohida e'tibor beridi. Biroq mohiyatan va milliy tabiatni jihatidan farqlanuvchi ingliz va o'zbek sport terminlari shakl va mazmun chegaralarining funksional dinamizmi, polisemiya, omonimiya, variativlik qonuniyatlarini doirasida terminlarning mantiqiy-konseptual qiymatini hamda innovatsion taraqqiyot istiqbollarini belgilash yo'lida tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Terminologiyaning tarixiy ildizlariga e'tibor qaratilganda sport terminlarining taraqqiyot bosqichlari, terminlarning milliy o'ziga xosligi, ularning tasnifi va tavsifi kabi masalalar tadqiqi yo'naliishida A.Rey, J.K.Seyjer, O.Vyuster, Yu.N.Marchuk, J.Kornyu, R.Temmermen, V.M.Leychik, S.I.Omarova, M.A.Parjeva, Sh.D.Shelov, O.S.Axmanova, shuningdek, A.Hojiev, H.Dadaboev, G.M.Ismailov, Z.A.Abdullaeva, A.Nurmonovning tadqiqotlari alohida e'tiborga molik [1-5].

Sport terminologiyasi yo'naliishida R.V.Vaynz, R.V.Popov, A.N.Shafoatov, I.Yu.Xmelevskaya, Z.Murzoev, Ye.I.Gureeva kabi xorijiy olimlar, shuningdek, M.X.Boboyorov, X.A.Sarimsokov singari o'zbek olimlari o'z tadqiqotlarini yaratishgan. Qolaversa, V.D.Shvayko I.Overana, P.G.Nurov, O.Q.Yusupov, I.K.Mirzaev, O.S.Ahmedov, P.P.Nishonov, D.I.Xodjaeva kabi olimlar tomonidan qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy terminshunoslikning nazariy asoslari dalillangan, terminologiya va uning turli xususiyatlari haqida lug'atlar, monografik asarlar hamda dissertatsiyalar chop ettirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Terminlar tillararo milliy-madaniy umumiylilik, xususiylik, mushtaraklik va farqlarni yorqin ifodalaydi. Kategoriylar konseptlarni turli xil holatda ma'lum bir madaniy o'zaro bog'liqlik doirasida birlashtiradi. Shu o'rinda V.G.Gak terminning

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

119.	NEMIS NIKOH TO'YLARIDAGI KELIN VA KUYOV VA'DALARINING LINGVISTIK TAHLILI Sidikjon Muminov Mirsobirovich, Qobil Kaxarov Shuhrat o'g'li	376
120.	FRANSUZ ERTAKLARIDAGI HURMAT TAMOYILINING INTENSIONAL XUSUSIYATLARI Sag'dullayeva Zuhra Ne'matulla Qizi Suvonova N.N.	380
121.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QORISHIQ HOL ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR M.O.Usmonova	383
122.	KO'R KOMPONENTLI QO'SHMA GAPLARGA TURLICHA YONDASHUVLAR Nazarova Sevaraxon Jaxongir qizi	385
123.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI PAREMIYALARIDA "ISH" KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI Burxonova Gulrux	387
124.	INGLIZ VA O'ZBEK SPORT TERMINMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI Xabibullayeva Zarnigor Elmurod qizi	390
125.	HOLAT BILDIRUVCHI SO'ZLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TASNIFI Muzaffarbekova Umidaxon Zayniddin qizi	392
126.	ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ КОМПЛИМЕНТА В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ Xolmuxammedova Sevara Xotam Qizi	399
127.	SEMANTIC FEATURES OF THE PHRASEOLOGICAL UNITS WITH NUMERATIVE COMPONENTS "THREE" IN ENGLISH AND UZBEK Jurayev Ziyodbek Nurmamatovich	402
128.	LINGUISTIC AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS WITH THE CONCEPT OF FRIENDSHIP AND ENMITY IN ENGLISH AND UZBEK Abdulazizova Sevara Ganiyevna Abdurahmanova Hulkaroy Tulanbayevna	405
129.	PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF THE CONCEPT "WRESTLING" IN ENGLISH AND UZBEK Matqulov Xosilbek Mavlonovich	407
130.	PROBLEMS OF TRANSLATING OF THE MEANS EXPRESSING THE GENDER SEMANTICS FROM ENGLISH INTO UZBEK Umida Bahodirovna Tuhktamatova	414
131.	ЎЗБЕК ТИЛИДА ОМОНИМЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР Тургунова Э.Э	416
132.	SPORT TERMINLARI ETIMOLOGIYASI VA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI Mingboyeva Muborakxon Nabihevna Sagindikova Rahat Jumabayevna	418
133.	THE CLASSIFICATION AND THE DEFINITION OF COLLOCATIONS Mingboyeva Muborakxon Nabihevna	421